

OMMAVIY TADBIRLAR DAVOMIDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA UNGA QARSHI TAHDIDLAR

Aytbaev Sanjar Sadullaevich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistraturasi tinglovchisi, leytenant*

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif ommaviy tadbir tushunchasi, ommaviy tadbirlarni o'tkazish davomida jamoat tartibini saqlash bo'yicha yaratilgan mexanizmlar, jamoat xavfsizligiga tahdidlar bo'yicha mamlakatimiz va horijdagi olimlar fikrini yoritib, bu borada xulosa va takliflarini berib o'tkan.

Kalit so'zlar. Ommaviy tadbir, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, tahdid, fuqarolar, huquqbuzarlik, tinchlik.

Abstract. In this article, the author explained the concept of a public event, mechanisms created to maintain public order during public events, threats to public safety and the opinion of scientists from our contry and abroad, and gave conclusions and suggestions in this regard.

Key words. Public event, public order, public safety, threat, citizens, crime, peace.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha yo'nalishlar, jumladan, «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz hudud» loyihalarida belgilangan vazifalarni samarali va to'liq amalga oshirish Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatida eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolmog'i lozimligi¹ ta'kidlab o'tildi.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tartibi va qatnashchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan.

Respublika hududida ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, terrorchilik-qo'poruvchilik va fuqarolarni garovga olish bilan bog'liq bo'lgan jinoiy harakatlarning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda ularni og'ir

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 y 7 dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor halq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kofolatidir" nomli ma'ruzasi.

oqibatlarsiz bartaraf etish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 205-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 6 oktyabr kunidagi "Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 530-son qarori, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 2015 yil 7 iyuldagi «Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davomida jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 112-sonli buyrug'i, milliy gvardiya bo'linmalari, ichki ishlar organlari, shu jumladan ma'muriy hududdagi tadbirlarni o'tkazish jarayonida profilaktika inspektorining faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda jamoat xavfsizligiga doir ma'muriy qonunchilik bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan to'ldirildi. Jumladan, "O'zbekiston respublikasi davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"², "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"³, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"⁴, "Favqulodda holat to'g'risida"⁵ qonunlar, "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"⁶ va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Shu o'rinda, avvalo ommaviy tadbirlarning turlari va ularni o'tkazish tartibiga to'xtalishdan avval, uning lug'aviy ma'nosiga alohida e'tibor qaratsak. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «ommaviy» so'zining mohiyatiga «ommaga, ko'pchilikka oid, ko'pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ommaviy ish, ommaviy harakatlar» deb izoh berilgan.

Mamlakatimiz normativ-huquqiy hujjatlarida ommaviy tadbir to'g'risidagi dastlabki tushuncha O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi Qarori 9-bandi 2-xatboshisida keltirilgan, unga ko'ra, "**Ommaviy tadbir** deganda, belgilangan tartibda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, o'zini-o'zi boshqarish

² O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 5 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son qonuni. <http://lex.uz>

³ O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentabrdagi "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'RQ-226-son qonuni. <http://lex.uz>

⁴ O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"ga 818-I-son qonuni. <http://lex.uz>

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabrda "Favqulodda holat to'g'risida"gi O'RQ-737-son qonuni. <http://lex.uz>

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-son farmoni. <http://lex.uz>

organlari tomonidan tashkil etilgan rasmiy tadbir (bayram sayllari, namoyishlar, mitinglar, majlislar, saylovlar, xalq hasharlari va hokazo)lar tushuniladi⁷”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi «**Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**»gi 205-sonli qarorida:

Ommaviy tadbir deb – 100 va undan ko‘p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, s‘ezdlar va boshqalar), madaniy-ommaviy va ko‘ngilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o‘yinlar, ko‘rik-tanlovlar va boshqalar), shuningdek umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o‘tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish ob‘ektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlariga aytiladi⁸ - deb ta’rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 205-sonli qarorida ommaviy tadbir turlari ikki toifaga, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarga ajratib ko‘rsatilgan, unga ko‘ra:

Birinchi toifadagi ommaviy tadbir — 200 va undan ko‘p kishilar ishtirokida Toshkent Nukus shaharlari va viloyat markazlari hududida o‘tkaziladigan ommaviy tadbir.

Ikkinchi toifadagi ommaviy tadbir – birinchi toifaga kirmaydigan ommaviy tadbir.

Vazirlar mahkamasining 2023 yil 6 oktyabr kunidagi “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 530-son qarori bilan, yuqoridagi meyoriy hujjatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Qarorda ommaviy tadbir turlari uch toifaga ajratildi. Ya’ni:

“Alohida toifadagi ommaviy tadbir – “Yangi yil”, “Navro‘z bayrami”, “Mustaqillik kuni”, “Ro‘za hayit” (Iyd al-Fitr), “Qurbon hayit” (Iyd al-Adha), “Rojdestvo xristovo”, “Pasxa” bayramlarini nishonlashga doir tadbirlar, ta’lim muassalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish, umumta’lim maktablarda o‘quv yilining boshlanishi va tugashiga bag‘ishlangan, saylov referendumlarni o‘tkazish bilan bog‘liq, shuningdek xalqaro hamkorlik

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi Qarori 9-bandi 2-xatboshi. <http://lex.uz>

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 205-sonli qarori. <http://lex.uz>

tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari ishtirokida o'tkaziladigan tadbirlar hamda futbol bo'yicha xalqaro miqiyosdagi uchrashuvlar”;

Birinchi toifadagi ommaviy tadbir – Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari hududida o'tkaziladigan alohida toifadagi ommaviy tadbir toifalariga kirmaydigan ommaviy tadbir;

Ikkinchi toifadagi ommaviy tadbir – alohida va birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar toifasiga kirmaydigan ommaviy tadbir;

Yuqorida keltirilgan ommaviy tadbir toifalaridan qat'iy nazar ularda eng ustuvor vazifa bu jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash xisoblanadi.

Bizga ma'lumki, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olishning huquqiy mexanizimi yaratildi. Jumladan, 2014 yil 14 mayda O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi va O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi “Ichki ishlari organlari to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevraldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida”gi Qarorlari qabul qilinib, ular bevosita jamoat tartibini saqlash, avvalambor, jamoat xavfsizligiga doir huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg'unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo'yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta'minlashning huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi mexanizmlar asosida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash tizimining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri, bizningcha, xavfsizlikka **tahdidlar**ga qarshi kurashdir, lekin ayni paytda tahdidlar tushunchasi va ularning turlari aniq belgilanmagan. Bu nafaqat olimlar va amaliyotchilar o'rtasida, balki xorijiy manbalarda ham ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ladi.

“O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasi”⁹da ham “tahdid” tushunchasi aniq ochib berilmagan, lekin milliy xavfsizlikka tahdidlarni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, harbiy va ekologiya sohalariga ajratgan. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida bo'lsa yuqoridagi ta'rifga aniq tushuncha berilgan, ya'ni:

“Shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlariga xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar va omillar majmui. Xavfsizlik obyektlariga ichki va tashqi xavf

⁹ “O'zbekiston respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 1997 yil 29 avgust kunidagi 467-I-son qonuni. <http://lex.uz>

manbalaridan kelib chiqadigan real va potensial tahdid ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat mazmunini belgilaydi"¹⁰.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tahdid" tushunchasiga "do'q qilish, qo'rqitish, qo'rqituv, do'q, po'pisa"¹¹, deb juda qisqa va umumiy ta'rif berilgan. Bu esa tor ma'noda faqatgina tahdid so'zining lug'aviy ma'nosini ochib bermoqda.

Sh.Paxrutdinovning fikricha, "Tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning "kirib kelishi" tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy, ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim¹². Lekin bu tushuncha "Tahdid" atamasining ma'nosini ochib bergan bo'lsada, jamoat xavfsizligiga tahdid sifatida qaralmaydi.

Aynan jamoat xavfsizligiga tahdidlar borasida Rossiyalik olim L.L.Popovning fikricha, ma'muriy-huquqiy tartibga solish sohasida jamoat xavfsizligiga tahdid belgilari tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda muqarrar ravishda yuzaga keladi. Kriminogen omillar, jinoyatlar, yo'l-transport hodisalari, baxtsiz hodisalar, ofatlar, nosoz transport vositalarini liniyaga qo'yib yuborish, alkogol yoki giyohvandlik holatida boshqarish, yong'inlar natijasida shaxsiy va mulkiy daxlsizlik va boshqalarni jamoat xavfsizligiga real tahdid sifatida qarash mumkin¹³ - deb ta'kidlangan.

Albatta bu bildirilgan fikrlar jamoat xavfsizligiga tahdidlarning namoyon bo'lishiga yordam beradigan ko'p qirrali shart-sharoitlarni to'liq qamrab ololmaydi, shu boisdan bizning fikrimizcha ushbu tahdidlarni qonunchilikda to'liq ochib berish, xavflilik darajasini aniqlashtirish hamda ularni tasniflash kerak, bu esa mumkin bo'lgan tahdidlarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini minimallashtirish uchun muhimdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligiga tahdid muayyan xatti-harakatlar (harakat yoki harakatsizlik) natijasida yuzaga keladigan munosabatlar yoki boshqa jarayonlar bo'lib, uning ta'sirida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga real tahdid soladigan jarayonlar tahdid sifatida qaralishi mumkin.

Biz nafaqat jamoat xavfsizligiga tahdidlarni o'rganishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, balki tahdidlarning manbalarini va jamoat xavfsizligiga tahdidlarni

¹⁰ Статья 3 Закона РФ от 5 марта 1992. N 2446-1 "О безопасности" // Ведомости Съезда народных депутатов РФ и Верховного Совета РФ. 1992. –N 15. Ст. 769

¹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati/ "T" harfi, 41-bet

¹² Paxrutdinov.Sh.«Tahdid» tushunchasi: nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998. 7-8 b

¹³ Административное право / под ред. Л.Л. Попова. 2-е изд. –М.: МГЮА, 2005.

baholashni shakllantirishga konseptual yondashuvlarni aniqlashtirishni ham zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy xujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023 yil
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. -№6. 70-modda
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 205-sonli qarori. <http://lex.uz>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 11 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-467- son qonuni. <http://lex.uz>

II. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati: Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati mutaxassisligi uchun: Ma’ruzalar kursi
2. Vedel J. Administrativnoe pravo Fransii. M.,1974. S.466; Gilensen V.M. Politsiya FRG. M.,1973. –S.18
3. Statya 3 Zakona RF ot 5 marta 1992. N 2446-1 "O bezopasnosti" // Vedomosti S‘ezda narodnyx deputatov RF i Verxovnogo Soveta RF. 1992. –N 15. St. 769
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati/ “T” harfi, 41-bet
5. Paxrutdinov.SH.«Tahdid» tushunchasi: nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998. 7-8 b

III. Elektron resurslar

1. www.bilim.uz.
2. “Xalq so‘zi” gazetasi- www.ihfo.xs.uz.
4. <http://lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun ujjatlarima’lumotlari milliy bazasi);
5. <http://akadmvd.uz> (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi);
7. <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta’lim tarmog‘i);